

# **Yangi tizimni samarali yo‘lga qo‘yish uchun maxsus dastur asosida 9 ming 300 dan ziyod xotin-qizlar faollarini mahallada ijtimoiy xizmatlarni tashkil etishga o‘qitish vazifasi qo‘yildi.**



“Vazirlar, hokimlar va sektor rahbarlari bir narsani aniq tushunib olishi kerak. Ushbu tizim xotin-qizlar faollari zimmasiga barcha mas’uliyatni yuklab qo‘yish degani emas.

Misol uchun, nogironligi bor shaxslarga 5 ta idora ijtimoiy xizmatlar ko’rsatadi. Lekin, ularga mahalladan turib murojaat qilishning imkonи yo‘q.

Eng asosiysi, ushbu idoralar tomonidan “o‘z mijozlari”ni aniqlash va ularga o‘z vaqtida ko‘mak berish tizimi yo‘lga qo‘yilmagan.

Bundan buyon, xotin-qizlar faollari tomonidan ijtimoiy xizmatlar olish uchun buyurtma berish tizimi joriy etiladi.

Ushbu buyurtmalar ijrosini ta’minalash orqali ijtimoiy himoyaga mas’ul barcha idoralar ishiga baho beriladi”, dedi Prezident.

O‘zini yaxshi ko’rsatgan xotin-qizlar faollari mukofotlanadi, yil natijalari bo‘yicha esa “Yangi O‘zbekiston islohotchisi” ko‘krak nishoniga tavsiya etiladi.